



O'ZBEKISTONDA INVESTITSIYA MUHITI JOZIBADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI

WAYS TO INCREASE THE ATTRACTIVENESS OF THE INVESTMENT ENVIRONMENT IN UZBEKISTAN

¹Xushvoqov Azizbek
Sirojiddinovich

¹Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi.

Annotatsiya Abstract

Uzb. - Maqolada O'zbekistonda investitsiya muhitining jozibadorligini oshirishning ilmiy-nazariy asoslari, uni belgilovchi omillar hamda hukumat tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar tahlil qilingan. Shuningdek, yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash, maxsus iqtisodiy zonalar samaradorligini oshirish, infratuzilmasi tayyor hududlarda yangi zonalar tashkil etish, o'zini o'zi band qilgan va kichik biznes subyektlariga garovsiz kreditlar berish, mahalliy mutaxassislarning xorijda malaka oshirishini davlat tomonidan moliyalashtirish zarurligi ilmiy asoslab berilgan.

Eng. - The article analyzes the scientific and theoretical foundations of enhancing the investment climate in Uzbekistan, the factors determining its attractiveness, and the reforms being implemented by the government. It also scientifically substantiates the need to support youth entrepreneurship, increase the efficiency of special economic zones, establish new zones in areas with ready infrastructure, provide collateral-free loans to self-employed individuals and small businesses, and finance the training of local specialists at high-tech manufacturing facilities abroad.

Kalit so'zlar: Keywords:

❖ *investitsiya, investitsiya muhiti, xorijiy investitsiyalar, investitsiya siyosati, jozibadorlik, investitsiyaviy jozibadorlik, tadbirkorlik, biznes, maxsus iqtisodiy zonalar, sanoat zonalari, tadbirkorlik subyektlari, garovsiz kreditlar, yuqori texnologiyali uskuna va jihozlar, davlat budjeti, investitsion xarajatlar.*

❖ *investments, investment environment, foreign investments, investment policy, attractiveness, investment attractiveness, entrepreneurship, business, special economic zones, industrial zones, economic entities, unsecured loans, high-tech equipment and materials, state budget, investment costs.*

Kirish.

Hozirgi global iqtisodiy jarayonlarda har bir mamlakatning barqaror iqtisodiy o'sishi va texnologik taraqqiyotini ta'minlashda investitsiyalar hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Investitsiyalar – mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining asosiy harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Investitsiya muhiti jozibadorligi

esa chet el va mahalliy sarmoyadorlarni jalb etishda hal qiluvchi omildir. Shu bois O'zbekistonda keyingi yillarda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, xususiy sektor faolligini oshirish va xorijiy sarmoyalar uchun qulay muhit yaratishga katta e'tibor qaratilmoqda.

BMT Savdo va taraqqiyot konferensiyasi (YUNKTAD) siyosat noaniqligi global investitsiyaga jiddiy ta'sir ko'rsatayotganidan ogohlantirdi va rivojlanayotgan mamlakatlar Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM)ga investitsiya keskin kamayishi xavfi ortayotganini ma'lum qildi. UNCTAD e'lon qilgan maxsus hisobotda ta'kidlanishicha, "global to'g'ridan-to'g'ri investitsiya o'tgan yil ham 11 foiz kamaygan edi. Demak, ikkinchi yil ketma-ket pasayish kuzatildi" [1]. Mazkur salbiy holat ishlab chiqarish kapital oqimi jadal sekinlashuvidan dalolat beradi. Investitsiya oqimi keskin qisqarishi rivojlangan mamlakatlar, xususan Yevropaga xos. Rivojlanayotgan mamlakatlarda sarmoya kiritish jarayoni barqaror ko'rinadi. Faqat bu chuqurroq inqirozni yashiradi. Ya'ni, ko'pgina iqtisodiyotlarda kapital yo turg'unlashmoqda yoki infratuzilma, energetika, texnologiya va ish o'rni yaratuvchi sanoat kabi asosiy tarmoqlarni butunlay chetlab o'tmoqda.

Ushbu xalqaro vaziyat va tendensiyadan kelib chiqib, so'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida investitsiya siyosati izchil ravishda takomillashtirilmoqda. Xususan, Davlat rahbari tashabbusi bilan Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi tashkil etildi, investitsiya faoliyatini tartibga soluvchi yangi qonunlar va qarorlar qabul qilindi, soliq va bojxona tizimida soddalashtirish, raqamlashtirish va shaffoflikni oshirish choralari ko'rildi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Iqtisodchi-olimlardan Sharp U., Aleksander G., Beyli Dj. Roberta S. Xigginza Bodi Ye., Markus A., Keyn A., M.N.Kreyninaning ilmiy-tadqiqolarida [2] hudud investitsiyaviy jozibadorligi korxonaning moliyaviy holatini tavsiflovchi umumlashtirilgan atama hamda investitsiyalar samaradorligi va rentabelligining ta'minlanishi sifatida talqin qilingan. Ular investitsiyaviy jozibadorlikka investitsiyalash obyektining

daromadliligi nuqtai-nazaridan qarashgan. Bu yesa investitsiyaviy jozibadorlikka mulkdan samarali foydalanish usuli sifatida yondashilganligini ko'rsatadi va korxona miqyosidagi mazmuni va mohiyatini ifoda yetadi. Ushbu iqtisodiy tushunchani ma'lum bir korxonaga investitsiyalarning maqsadga muvofiqligini belgilovchi ko'rsatkich sifatida tushunadilar. Biroq, investitsiyaviy jozibadorlik, nafaqat, korxona, balki tarmoq, alohida hudud miqyosida ham amal qiladi.

Keyingi yondashuv tarafdorlari V.V.Litvinova, L.G.Axtariyeva, L.Sh.Yangulbayevalar fikricha [3], hududlarning investitsiyaviy jozibadorligi hudud investitsiya muhitining ajralmas qismi bo'lib, unga ta'sir yetuvchi barcha omillar va ko'rsatkichlar majmuidir. Shuningdek, investitsiyaviy salohiyat va investitsiya riski (xavf-xatar) darajasi investitsiyaviy jozibadorlikni belgilab beradi.

Mahalliy iqtisodchi-olimlar A.Vaxabov, Sh.Mustafakulov, A.Yergashev, B.Mamatov ilmiy ishlarida [4] hududlar investitsiyaviy jozibadorligi hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy holati, qulay investitsiya muhitining, barqaror qonunchilik asoslarining yaratilganligi, hudud investitsiya salohiyati va investitsiya riski darajasi nuqtai nazaridan talqin qilingan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot ishi olib borish jarayonida mantiqiy fikrlash, prognozlash, sintez, tizimli yondashuv, tarkibiy va qiyosiy tahlil, iqtisodiy taqqoslash, ilmiy umumlashtirish usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Investitsiya muhitining jozibadorligi quyidagi omillar bilan belgilanadi: siyosiy barqarorlik va huquqiy kafolatlar – sarmoyadorlar uchun eng muhim omil. Investor o'z kapitali xavfsizligiga ishonch hosil qilishi kerak; soliq va bojxona siyosatining shaffofligi – soliq imtiyozlari, yengilliklar va ikki karra soliq solishdan ozod etish

mexanizmlari muhim ahamiyatga ega; infratuzilmaning rivojlanganligi – transport, energetika, telekommunikatsiya va logistika tizimlarining samaradorligi sarmoyadorlar qarorlariga ta'sir ko'rsatadi; kadrlar salohiyati – malaka va bilim darajasi yuqori bo'lgan ishchi kuchi xorijiy sarmoyadorlar uchun katta afzallikdir; ma'muriy tartiblarning soddalashtirilishi – “bir darcha” tizimi orqali litsenziya va ruxsatnomalarni olish jarayonidagi byurokratiyani qisqartirish investitsiya muhitini yengillashtiradi.

O'zbekiston hukumati tomonidan investitsiyaviy muhit jozibadorligini oshirish bo'yicha qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2019-yilda investitsiya qonunchiligining liberallashtirilishi natijasida “Investitsiyalar va faoliyati to'g'risida”gi Qonun yangi tahrirda qabul qilindi [5]. Erkin iqtisodiy zonalar tashkil etilib, investorlarga soliq va bojxona imtiyozlari berilayotir. Xorijiy investorlar uchun kafolatlar tizimi yaratilgan – ya'ni davlat sarmoyalar xavfsizligini qonun yo'li bilan ta'minlaydi. Davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari keng yo'lga qo'yilib, infratuzilma, energetika va ta'lim sohalarida faol qo'llanilmoqda. Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish orqali biznes yuritishdagi to'siqlar qisqartirilmoqda. Ammo, yaratilgan shart-sharoitlar investitsion faollikni oshirish va xorijiy investitsiyalarni faol jalb qilish uchun yetarli emas va O'zbekiston-2030 strategiyasida belgilangan vazifalarning bajarilishiga imkon bermasligi mumkin. Xususan, 2030-yilga qadar “Mamlakatimizda 250 milliard dollarlik investitsiyalarni o'zlashtirish, jumladan 110 milliard dollar xorijiy investitsiyalar va 30 milliard dollar davlat-xususiy sheriklik doirasidagi investitsiyalarni jalb qilish” [6] kabi dolzarb vazifalar belgilangan. Shu munosabat bilan investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish uchun quyidagi chora-tadbirlarga asosiy e'tibor qaratilishi zarur.

1. Yoshlar o'rtasida tadbirkorlikni keng ommalashtirish va biznes bilan shug'ullanishlariga qo'shimcha imkoniyatlar yaratish maqsadida oilaviy tadbirkorlik dasturi doirasida ajratilayotgan kreditlarning kamida 40 foizini yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishga yo'naltirish zarur. Bugungi kunda yoshlar tadbirkorligi mamlakat iqtisodiy rivojlanishining muhim ustuni hisoblanadi. Global iqtisodiyotning tez sur'atlar bilan o'zgarib borayotgan sharoitida yosh avlodning iqtisodiy faolligi va tadbirkorlik salohiyati mamlakat taraqqiyotining muhim omiliga aylanmoqda. Yoshlar – innovatsion g'oyalarni amalga oshiruvchi, zamonaviy texnologiyalarni tez o'zlashtiruvchi va iqtisodiy tizimga yangi nafas bag'ishlovchi kuchdir. O'zbekiston Respublikasida keyingi yillarda yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Prezident tashabbusi bilan “Yoshlar – kelajagimiz”, “Yosh tadbirkorlar dasturi”, “Yoshlar daftari” kabi yirik dasturlar amalga oshirilib, yoshlarning biznes sohasiga kirib kelishi uchun moliyaviy va tashkiliy asoslar yaratildi. Tadbirkorlik – bu foyda olish maqsadida risk asosida tashkil etilgan mustaqil xo'jalik faoliyati bo'lib, innovatsiya, tashabbuskorlik va resurslarni samarali taqsimlash bilan tavsiflanadi. Yoshlar tadbirkorligi esa – 18 yoshdan 30 (ba'zi hollarda 35) yoshgacha bo'lgan shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan iqtisodiy faoliyatdir. Uning o'ziga xos jihati shundaki, yoshlar faolligida innovatsiyaga moyillik, zamonaviy texnologiyalarni o'zlashtirish qobiliyati va ijtimoiy javobgarlik yuqori bo'ladi.

Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish quyidagi strategik vazifalarni hal etadi: iqtisodiyotda yangi ish o'rinlarini yaratish; yoshlar bandligini ta'minlash va ishsizlik darajasini kamaytirish; innovatsion g'oyalarni amaliy biznesga aylantirish; milliy iqtisodiyotda raqobatbardosh ishlab chiqarishni rivojlantirish; yosh avlodning ijtimoiy faolligi va mas'uliyatini oshirish. Shu

munosabat bilan so'nggi yillarda O'zbekistonda yoshlar tadbirkorligiga keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Xususan: "Yoshlar – kelajagimiz" davlat dasturi qabul qilindi; yosh tadbirkorlar uchun 7 foizdan oshmaydigan imtiyozli kreditlar yo'lga qo'yildi; yoshlar tadbirkorlik markazlari va kovorking maydonlari tashkil etildi; yoshlar innovatsiya va startap loyihalari uchun grantlar va venchur mablag'lar bilan ta'minlanmoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, so'nggi besh yilda yoshlar tomonidan ro'yxatdan o'tgan kichik biznes subyektlari soni sezilarli oshgan. Lekin, ayrim muammolar ham mavjud. Ulardan asosiysi moliyalashtirish manbalarining yetarli emasligidir. Yoshlar iqtisodiy islohotlarning faol ishtirokchisi, innovatsion g'oyalar tashabbuskori va jamiyatning iqtisodiy salohiyatini yuksaltiruvchi asosiy omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu munosabat bilan, "Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish davlat dasturi" [7] doirasida ajratilayotgan imtiyozli kreditlarning ma'lum qismini yoshlar tadbirkorligiga yo'naltirish g'oyasi iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan juda maqsadga muvofiq hisoblanadi. Xususan, bu kreditlarning kamida 40 foizini yoshlar tadbirkorlik loyihalariga ajratish yoshlarning iqtisodiy faolligini oshirish, ishsizlikni kamaytirish va yangi innovatsion ishlab chiqarish sohasini yaratishda katta samara beradi.

Iqtisodiy nuqtai nazaridan, investitsiya resurslari va tadbirkorlik faolligi o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlik mavjud. "Keynsian modelda ishchi kuchini to'liq bandlikka olib keluvchi asosiy omillardan biri sarmoyaga bo'lgan talabdir" [8]. Shu bois yoshlar tadbirkorligini moliyaviy qo'llab-quvvatlash, ayniqsa kredit resurslari orqali, iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi. Yoshlar tadbirkorligi ko'p hollarda boshlang'ich kapital yetishmovchiligi sababli cheklanib qoladi. Shu nuqtai nazardan, davlat tomonidan ajratiladigan imtiyozli kreditlar yoshlar uchun "moliyaviy lift" vazifasini bajaradi. Bu ular

ga o'z g'oyalarini amalga oshirish, ishlab chiqarishni tashkil etish va xizmatlar sohasida faoliyat boshlash imkonini beradi.

Oilaviy tadbirkorlik dasturi – aholining keng qatlamlarini, jumladan yoshlar, ayollar va nogironligi bo'lgan shaxslarni iqtisodiy faollikka jalb etishga qaratilgan tizimli davlat mexanizmi hisoblanadi. Uning asosiy maqsadi aholi daromadlarini oshirish, ichki bozorda mahsulotlar turfa xilligini ta'minlash va kichik biznesni rivojlantirishdir. Shu dastur doirasida yoshlar tadbirkorligiga ajratiladigan kredit ulushini 40 foizgacha oshirish, iqtisodiy resurslarning samarali taqsimlanishi nuqtai nazaridan oqilona va ijtimoiy adolatli qaror hisoblanadi.

Yoshlar tadbirkorligiga kreditlarni yo'naltirishning maqsadga muvofiqligi quyidagilarda namoyon bo'ladi: yosh tadbirkorlar tomonidan tashkil etilgan har bir yangi biznes ishlab chiqarish zanjiridagi boshqa sohalarda talabni oshiradi, bu iqtisodiy faollikni kuchaytiradi va yalpi ichki mahsulot (YaIM) o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi; yoshlar ko'pincha innovatsion g'oyalar tashabbuskoridir, ularning loyihalari raqamli texnologiyalar, IT-axborot texnologiyalari, elektron tijorat, servis va logistika sohaslarida yangi ishlab chiqarish turlarini yaratadi; yoshlar bandligini ta'minlash orqali ishsizlik kamayadi, bu esa ijtimoiy barqarorlik va ichki iste'mol salohiyati oshishiga xizmat qiladi; yoshlar tadbirkorlik orqali faqat iqtisodiy emas, balki ijtimoiy mas'uliyatni ham o'z zimmasiga oladi, bu jamiyatda faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantiradi; yosh tadbirkorlar ko'pincha oila a'zolari bilan birgalikda faoliyat boshlaydi, bu esa oilaviy iqtisodiy mustaqillikni ta'minlaydi; kreditlarning muayyan qismi yosh ayol tadbirkorlarga ajratilsa, bu iqtisodda gender balansiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Iqtisodiy tahlil nuqtai nazaridan, yoshlar tadbirkorligiga ajratiladigan kredit ulushini 40 foiz darajasida belgilash quyidagi asoslarga tayanadi: O'zbekiston aholisining qariyb 60 foizi 30 yoshgacha bo'lgan yoshlardir.

Demak, moliyaviy resurslarning kamida 40 foizini ushbu toifaga yo'naltirish demografik proporsiya bilan mutanosibdir; yoshlar biznesida innovatsiya unumdorligi yuqori bo'lgani uchun har bir sarflangan kredit mablag'i yuqori qo'shimcha qiymat yaratadi; hisob-kitoblarga ko'ra, yoshlar tadbirkorligini moliyalashtirish orqali har bir 1 mlrd. so'm kredit 10-15 ta yangi ish o'rni yaratish imkonini beradi; davlat kafolati ostida ajratiladigan imtiyozli kreditlar qaytarilish darajasi 90 foiz atrofida bo'lib, bu yoshlar tadbirkorligida moliyaviy xavf pastligini ko'rsatadi.

Oilaviy tadbirkorlik dasturi doirasida ajratilayotgan kreditlarning kamida 40 foizini yoshlar tadbirkorligiga yo'naltirish – iqtisodiy jihatdan asoslangan, ijtimoiy jihatdan esa adolatli va strategik muhim qarordir. Bu chora yoshlar ishbilarmonligini rivojlantirish, yangi ish o'rinlari yaratish, innovatsiyalarni amalga oshirish va mamlakatning raqobatbardosh iqtisodiyotini shakllantirishga xizmat qiladi.

2. Maxsus iqtisodiy zonalarining ishtirokini faollashtirish va ular faoliyatini takomillashtirish maqsadida maxsus iqtisodiy zonalarining faoliyat ko'rsatish muddatiga oid cheklovlarni bekor qilish maqsadga muvofiqdir. Maxsus iqtisodiy zonalar (MIZ) zamonaviy iqtisodiy siyosatning eng samarali vositalaridan biri hisoblanadi. Ularning asosiy vazifasi – investitsiyalarni jalb etish, ilg'or texnologiyalarni joriy qilish, eksport salohiyatini oshirish va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tezlashtirishdan iborat. O'zbekiston Respublikasida 2017 yildan buyon qator MIZlar (Navoiy, Angren, Jizzax, Urgut, Xazarasp, Turkiston va boshqalar) faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Ular orqali minglab yangi ish o'rinlari yaratildi, eksport hajmi oshdi va mahalliy ishlab chiqarish turlari rivojlandi. Biroq amaldagi qonunchilikka ko'ra, MIZlarning faoliyat ko'rsatish muddati cheklangan (masalan, 30 yilgacha) [9]. Ilmiy nuqtai nazardan, bu cheklov iqtisodiy samaradorlikka salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuning uchun maxsus iqtisodiy

zonalarining faoliyat muddatiga oid cheklovlarni bekor qilish masalasi nazariy va amaliy jihatdan dolzarbdir.

Cheklangan muddatga ega zonalarda investorlar quyidagi risklarga duch keladi: investitsiyaning uzoq muddatli kafolati yo'q, yirik kapital sarmoyalar kiritish ehtimoli kamayadi; qaytib olish davri (payback period) uzoq bo'lgan loyihalar amalga oshirilmaydi; institusional barqarorlikka ishonch pasayadi, natijada investitsiya xavfi oshadi.

Iqtisodiy nazariyada investitsion muhit barqarorligi – sarmoya oqimlarining asosiy determinanti hisoblanadi. Shu bois, MIZ muddati cheklovini bekor qilish sarmoyadorlar uchun uzoq muddatli kafolatlar yaratib, investitsion faollikni oshiradi.

Xorijiy sarmoyadorlar uchun investitsiyaning uzoq muddatli kafolati muhim. MIZ faoliyati cheklovsiz bo'lganda: sarmoyalarning qaytib olish davri uzayadi, loyihalarda yuqori texnologiya va innovatsiyalar qo'llaniladi, xalqaro kapital oqimlari barqaror ravishda jalb etiladi.

MIZ faoliyati muddati cheklovsiz bo'lsa: hududiy iqtisodiy tizimda barqaror investitsiya markazi shakllanadi; davlat budjetiga uzoq muddatli soliq tushumlari kafolatlanadi; infratuzilma ob'yektlaridan foydalanish samaradorligi oshadi (cheklangan muddatda qurilgan infratuzilma tez eskiradi yoki samarasiz qolishi mumkin).

"Xitoydagi Shenchjen va Shanxay erkin iqtisodiy zonalarida muddat chegarasi yo'q, bu ularni dunyodagi eng yirik sarmoya markazlariga aylantirdi" [10]. Dubaydagi "Jebel Ali Free Zone" [11] 1985-yilda tashkil etilgan va hozirgacha cheklovsiz faoliyat yuritmoqda; bu orqali 8000 dan ortiq kompaniya investitsiya kiritgan. Polsha va Chexiya kabi mamlakatlar cheklovli MIZ modelidan cheklovsiz formatga o'tganidan so'ng, investitsiya hajmi o'rtacha 35-40 foizga oshgan. Shu misollardan ko'rinib turibdiki, MIZ muddatini chekلامaslik – xalqaro amaliyotda investitsiya barqarorligini ta'minlovchi asosiy omillardan biridir.

Amaliy jihatdan O'zbekistonda MIZ infratuzilmasini yaratishga yirik sarmoyalar kiritilgan; uning samarasi uzoq muddatda ko'rinadi. Shuning uchun cheklovsiz faoliyat investitsiyalarni to'liq qoplash imkonini yaratadi. Sanoat korxonalari faoliyatida texnologik yangilanish sikli 10-15 yilni tashkil etadi. 30 yillik cheklovdan keyin faoliyatni to'xtatish bu siklni buzadi. MIZlarning muddatini cheklamaslik hududiy iqtisodiy siyosatda davomiylik va barqarorlikni ta'minlaydi. Uzoq muddatli faoliyatga ega zonalarida ilm-fan bilan integratsiya kuchayadi. Eksportbop mahsulot ishlab chiqarish uchun uzoq muddatli sarmoyalar talab etiladi. Cheklovsiz MIZlar xalqaro reytinglarda mamlakat investitsiya muhitining barqarorligini ko'rsatadi.

Institusional barqarorlik nazariyasi nuqtai nazaridan, iqtisodiy institutlar (MIZ kabi) uzoq muddatli faoliyatga ega bo'lishi kerak, chunki har qanday cheklov iqtisodiy subyektlarning ishonchini kamaytiradi.

Investitsion risk nazariyasiga ko'ra, sarmoyadorlar uzoq muddatli kafolatli muhitni afzal ko'radi. Shu bois MIZ muddatini bekor qilish riskni kamaytiradi va sarmoya oqimini ko'paytirishga xizmat qiladi.

Klasterlashuv effekti faqat uzoq muddatli iqtisodiy munosabatlar orqali yuzaga keladi. Shu sabab, MIZlarning chegarasiz faoliyati milliy sanoat tarmoqlarini chuqur integratsiya qilish imkonini beradi.

Maxsus iqtisodiy zonalarining faoliyat muddatiga oid cheklovlarni bekor qilish iqtisodiy jihatdan ham, institusional va ijtimoiy jihatdan ham maqsadga muvofiqdir. Bu chora: investorlar uchun uzoq muddatli kafolat yaratadi; yangi ishlab chiqarish tarmoqlarini shakllantiradi; hududlarning iqtisodiy salohiyatini barqaror rivojlantiradi; innovatsiya va texnologik rivojlanishni rag'batlantiradi. Shu tariqa, MIZ muddatini cheklamaslik – iqtisodiy siyosatda “bir martagi imtiyoz” emas, balki uzoq muddatli rivojlanish

modelini ta'minlovchi ilmiy asoslangan qaror sifatida baholanishi lozim.

3. Yangi maxsus iqtisodiy va sanoat zonalarini faqat infratuzilma mavjud bo'lgan yoki u bilan ta'minlash iqtisodiy asoslangan, moliyaviy samaradorligi hisoblangan biznes-reja va master-reja asosida qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlarda tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, hududlarni barqaror rivojlantirish va ishlab chiqarish salohiyatini oshirish yo'lida maxsus iqtisodiy va sanoat zonalarini (MISZ) tashkil etish muhim strategik vazifalardan biridir. Biroq bu jarayonda yer resurslaridan oqilona foydalanish, infratuzilmani samarali rejalashtirish va sarmoyalarning iqtisodiy qaytimi ta'minlanishi zarur. Shu bois yangi zonalarini infratuzilmasi mavjud yoki uni yaratish iqtisodiy jihatdan asoslangan hududlarda, biznes va master reja asosida, hamda qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlarda tashkil etish – ilmiy va amaliy jihatdan eng maqbul yo'nalish hisoblanadi.

Iqtisodiy nazariyada “resurs samaradorligi” tushunchasi asosiy prinsip sifatida qabul qilinadi. Unga ko'ra, har bir iqtisodiy qarorda resurslar (yer, mehnat, kapital, energiya)dan eng yuqori samara bilan foydalanish ta'minlanishi kerak.

Infratuzilmasi mavjud hududlarda yangi zonalarini joylashtirish quyidagi afzalliklarni beradi: transport, kommunikatsiya va logistika xarajatlari kamayadi; sarmoyaning investitsion qaytimi tezlashadi; ekologik yuklama kamayadi; yer resurslaridan qayta-qayta foydalanish imkoniyati yaratiladi. “Bu – Samuelson va Nordxausing optimal resurs taqsimoti nazariyasiga muvofiq bo'lib, iqtisodiy samaradorlikni oshirishning ilmiy asosidir” [12].

“A.Veber va V.Kristaller nazariyalariga ko'ra, sanoat korxonalari joylashuvida asosiy omillar – infratuzilma, bozorlarga yaqinlik va transport xarajatlaridir” [13]. Agar MISZlar

infratuzilmasiz, yo'llar va energiya tarmoqlaridan uzoq hududlarda tashkil etilsa, investitsiya xarajatlari ortib, biznesning rentabellik darajasi pasayadi. Shu sababli, ilmiy nuqtai nazardan yangi iqtisodiy zonalarini faqat infratuzilmasi mavjud hududlarda yoki uni yaratish iqtisodiy jihatdan oqlangan hollarda tashkil etish iqtisodiy jihatdan oqilona qaror hisoblanadi.

Biznes reja – bu har qanday iqtisodiy zona yoki investitsiya loyihasining iqtisodiy samaradorligini prognozlashtiruvchi hujjat hisoblanadi. Shu bois, MISZni tashkil etishda: kapital qo'yilmalar hajmi; infratuzilmani qurish xarajatlari; soliq imtiyozlari ta'siri; foyda va sarf-nisbat (cost-benefit ratio) hisoblanishi zarur.

Ilmiy jihatdan, har bir zona uchun NPV (Net Present Value), IRR (Internal Rate of Return) va Payback Period ko'rsatkichlari hisoblanishi kerak. Faqat ijobiy iqtisodiy samaraga ega loyihalar amalga oshirilishi – davlat investitsiya siyosatidagi ilmiy yondashuv hisoblanadi.

Master reja – hududiy rivojlanishning ilmiy modelidir. Master reja (Master Plan) – hududni strategik rivojlantirishning kompleks modeli bo'lib, u yerdan foydalanish, muhandislik tarmoqlari, ekologiya va aholi urbanizatsiyasi o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlaydi. Ilmiy nuqtai nazardan, master reja orqali: hududning iqtisodiy rivojlanish salohiyati aniqlanadi; infratuzilmaviy zichlik indeksi hisoblanadi; tabiiy va ijtimoiy muhit bilan uyg'unlik ta'minlanadi. Shu bois, har bir yangi iqtisodiy zona master reja bilan muvofiqlashtirilgan holda tashkil etilishi ilmiy asoslangan qaror bo'ladi.

Qishloq xo'jaligi yerlari – qayta tiklanmaydigan tabiiy resurs hisoblanadi. Ularni sanoat maqsadlariga ajratish iqtisodiy nuqtai nazardan ikkilamchi yo'qotishlar (opportunity cost) keltiradi: agrar ishlab chiqarish hajmi kamayadi; oziq-ovqat xavfsizligiga tahdid paydo bo'ladi; ekologik muvozanat buziladi. Shu sababli, ilmiy jihatdan

sanoat zonalarini qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan, degradatsiyalangan yoki foydalanilmayotgan yerlarda tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Bu – ustuvor resurs taqsimoti nazariyasiga (Pareto optimal allocation) mos yondashuvdir.

Sanoat zonalarini agrar yerlardan chiqarib, faqat infratuzilmali hududlarda joylashtirish: atrof-muhit yukini kamaytiradi; suv va tuproq resurslarini muhofaza qiladi; "yashil iqtisodiyot" prinsiplariga muvofiq keladi. Bu, o'z navbatida, barqaror rivojlanish nazariyasi (Sustainable Development Theory) talablariga javob beradi.

Yangi MISZlarni infratuzilmasi mavjud yoki uni yaratish iqtisodiy jihatdan asoslangan hududlarda tashkil etish – resurs samaradorligi nazariyasi va institusional iqtisodiyot tamoyillariga mos. Biznes va master rejalar – iqtisodiy loyihalarining ilmiy asosi bo'lib, ularsiz zona tashkil etish moliyaviy xavfni oshiradi va samaradorlikni pasaytiradi. Qishloq xo'jaligi yerlarini saqlab qolish – milliy oziq-ovqat xavfsizligi va ekologik barqarorlikni ta'minlovchi strategik vazifadir. Ilmiy jihatdan, sanoat zonalarini infratuzilmali, iqtisodiy asoslangan hududlarda joylashtirish davlat investitsiya siyosati samaradorligini oshiradi va YAIM o'sishiga qo'shimcha turtki beradi.

Shunday qilib, yangi maxsus iqtisodiy va sanoat zonalarini: infratuzilmasi mavjud yoki uni yaratish iqtisodiy jihatdan asoslangan hududlarda; ilmiy asoslangan biznes va master rejalar asosida; qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlarda tashkil etish – iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy jihatdan eng maqbul va barqaror yechim hisoblanadi. Bu yondashuv milliy iqtisodiyotni raqobatbardosh qilish, sarmoya oqimini oqilona yo'naltirish, yer resurslarini muhofaza qilish va hududlarni kompleks rivojlantirishga xizmat qiladi.

4. O'z faoliyatini tegishincha yakka tartibdagi tadbirkor, mikrofirmalar yoki kichik korxona toifasigacha yiriklashtirgan o'zini o'zi band qilgan shaxslar va tadbirkorlik subyektlariga Oilaviy tadbirkorlikni

rivojlantirish dasturi doirasida 50 million soʻmgacha, Kichik biznesni uzluksiz qoʻllab-quvvatlash kompleks dasturi doirasida – 150 million soʻmgacha garovsiz kreditlar berish maqsadga muvofiqdir.

Oʻzbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish iqtisodiy barqarorlik, aholi bandligini taʼminlash va milliy yalpi mahsulot hajmini oshirishning ustuvor yoʻnalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, oʻzini oʻzi band qilgan shaxslarning tadbirkorlik faoliyatiga bosqichma-bosqich integratsiyasi mamlakat iqtisodiy salohiyatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, Oʻz faoliyatini yakka tartibdagi tadbirkor, mikrofirmalar yoki kichik korxona toifasigacha yiriklashtirgan oʻzini oʻzi band qilgan shaxslar va tadbirkorlik subyektlariga “Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturi” doirasida 50 million soʻmgacha, “Kichik biznesni uzluksiz qoʻllab-quvvatlash kompleks dasturi” doirasida 150 million soʻmgacha garovsiz kreditlar berish ilmiy-iqtisodiy jihatdan maqbul, ijtimoiy jihatdan esa adolatli hisoblanadi.

Iqtisodiy fanlarda “moliyaviy inklyuziya” (financial inclusion) – aholining barcha qatlamlarini moliyaviy xizmatlardan teng foydalanish imkoniyati bilan taʼminlash jarayoni sifatida talqin etiladi. Oʻzini oʻzi band qilgan shaxslar, ayniqsa norasmiy iqtisodiyot sektori va kichik miqyosli faoliyat bilan shugʻullanuvchilar, koʻp hollarda bankom yoki moliya institutlari uchun kredit qobiliyati past toifa sifatida baholanadi. Shu sababli, garovsiz kreditlar berish: moliyaviy inklyuziya darajasini oshiradi; iqtisodiy faol aholi ulushini kengaytiradi; yashirin iqtisodiyotni rasmiylashtiradi. Bu – Jahon banki va Xalqaro valyuta jamgʻarmasi tomonidan ilgari surilgan “Inclusive Growth” modeli talablariga toʻliq mos keladi.

Iqtisodchi E. Penrouzning “Firmaning oʻsish nazariyasi”ga koʻra [15], kichik biznes rivojlanishining asosiy toʻsigʻi – moliyaviy resurslar yetishmasligidir. Shu sababli, davlat

tomonidan imtiyozli yoki garovsiz moliyalashtirish orqali: kichik korxonalarning kapital koʻpayishi; yangi ish oʻrinlari yaratilishi; innovatsion mahsulot ishlab chiqarishga oʻtish tezlashadi. Garovsiz kreditlar tadbirkorlikning “eng past bosqichidan” “barqaror kichik biznes bosqichiga” oʻtishda oʻzgaruvchi iqtisodiy platforma vazifasini bajaradi.

Garovsiz kreditlar iqtisodiyotda multiplikator taʼsir yaratadi: har bir 1 soʻmlik kredit orqali qoʻshimcha ishlab chiqarish hajmi 2-3 soʻmgacha oʻsadi (Keynesian multiplier effect). Buning sababi: tadbirkor mahsulot ishlab chiqaradi; yangi ish oʻrinlari yaratiladi; daromad va soliq tushumlari koʻpayadi.

Garovsiz kreditlar berishning ijtimoiy samaradorligi shundaki, bunda bandlik darajasi oshadi – oʻzini oʻzi band qilganlar tadbirkorlikka oʻtadi; oilalarning daromadi koʻpayadi – ijtimoiy tengsizlik kamayadi; ayollar va yoshlar tadbirkorligi rivojlanadi – ijtimoiy faol qatlam koʻpayadi. Shu yoʻl bilan mamlakatda “inklyuziv iqtisodiy oʻsish” taʼminlanadi.

Garovsiz kredit tizimining samaradorligi uchun quyidagi ilmiy-amaliy asoslar muhim: kredit scoring tizimi – qarzdorning biznes faoliyati, soliq toʻlovlari va raqamli hisobotlariga asoslangan baholash mexanizmi; kredit kafolat jamgʻarmalari – bank xavfini qisman davlat yoki jamgʻarma hisobidan qoplash; biznes konsalting va mentorlik tizimi – qarzdor tadbirkorning mablagʻni samarali foydalanishi uchun maslahatchi qoʻllab-quvvatlash xizmati. Bu usullar ilmiy jihatdan asimmetrik maʼlumot nazariyasi (Stiglitz & Weiss, 1981)ga [15] asoslanib, kredit risklarini minimallashtirishga xizmat qiladi.

Oʻzini oʻzi band qilgan shaxslar va tadbirkorlik subyektlariga Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturi doirasida 50 million soʻmgacha garovsiz kreditlar boshlangʻich kapital yaratish orqali ijtimoiy-iqtisodiy faollikni oshiradi (Human Capital Theory). 150 mln. soʻmgacha miqdorda

beriladigan garovsiz kreditlar kichik biznes o'sish salohiyatini ta'minlash (Growth Theory) va ichki bozorni rag'batlantirish (Aggregate Demand Theory) imkonini yaratadi.

Xalqaro tajriba bilan taqqoslaydigan bo'lsak, Turkiyada "KOSGEB Micro Finance Program" orqali garovsiz kreditlar orqali 2015-2023-yillarda 500 mingdan ortiq mikro tadbirkorlar faoliyati boshlangan. Koreya Respublikasida "Start-Up Guarantee System" kichik biznesga davlat kafolati asosida garovsiz kredit berish tizimini joriy etgan. Qozog'istonda "Bastau Biznes" dasturi doirasida garovsiz kreditlar natijasida o'zini o'zi band qilganlarning 35 foizi tadbirkorga aylangan. Bu tajribalar garovsiz kreditning iqtisodiy foydaliligini ilmiy jihatdan isbotlaydi.

O'zini o'zi band qilgan shaxslar va kichik tadbirkorlik subyektlariga garovsiz kredit berish tizimi: moliyaviy inklyuziyani oshiradi; iqtisodiy o'sishning yangi manbai bo'ladi; norasmiy iqtisodiyotni qisqartiradi; yoshlar va ayollar tadbirkorligini rag'batlantiradi; mahalliy iqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydi. Shuning uchun mazkur taklifni ilmiy asoslangan iqtisodiy siyosat tavsiyasi sifatida qabul qilish maqsadga muvofiqdir.

5. Sanoat tarmoqlarida faoliyat yuritayotgan yirik tadbirkorlik subyektlari tomonidan xorijda ishlab chiqarilgan yuqori texnologiyali uskuna va jihozlarni o'rnatish, sozlash, ishga tushirish hamda ta'mirlash bo'yicha import o'rnini bosuvchi servis xizmatlarini ko'rsatishda mahalliy korxonalar ishtirokini kengaytirish maqsadida mahalliy mutaxassislarning xorijdagi yuqori texnologiyali uskuna va jihozlar ishlab chiqarish zavodlarida malaka oshirishini tashkil etish hamda bu bilan bog'liq xarajatlarni Davlat budjeti hisobidan qoplab berish zarur.

Bugungi kunda O'zbekiston sanoati jadal rivojlanmoqda, ayniqsa energiya, kimyo, mashinasozlik, farmasevtika, elektron texnika va qishloq xo'jaligi mashinalari ishlab chiqarish sohalarida xorijiy investitsiyalar va zamonaviy texnologiyalar jalb etilmoqda. Biroq bu

jarayonda ko'p hollarda jixozlarni o'rnatish, sozlash, ishga tushirish va ta'mirlash ishlari xorijiy mutaxassislar tomonidan amalga oshirilmoqda, bu esa: import xarajatlarini oshiradi, mahalliy kadrlar malakasini cheklaydi, milliy iqtisodiyotda qo'shimcha qiymatni kamaytiradi. Shu sababli, mahalliy mutaxassislarni xorijdagi yuqori texnologiyali uskuna ishlab chiqaruvchi zavodlarda o'qitish va malakasini oshirishni tashkil etish, hamda bu bilan bog'liq xarajatlarni davlat budjeti hisobidan qoplash taklifi – ilmiy va amaliy jihatdan asoslangan iqtisodiy siyosat yo'nalishidir.

T.Shuls va G.Bekker nazariyalariga ko'ra [16], inson kapitaliga kiritilgan har bir sarmoya (ta'lim, malaka oshirish, qayta tayyorlash) iqtisodiy o'sishga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi. Bu holda davlat budjeti hisobidan mahalliy mutaxassislarni xorijda o'qitish: yuqori texnologik bilimlar transferini ta'minlaydi; mahalliy ishchi kuchini raqobatbardosh qiladi; sanoat sohasida xizmat ko'rsatish va ta'mirlashning milliy bazasini yaratadi. Ya'ni, bu sarmoya cheklangan muddatda moliyaviy xarajat sifatida emas, balki uzoq muddatli investitsiya sifatida qaralishi kerak.

R.Vernon va J.Danningning ilmiy ishlarida ta'kidlanganidek [17], texnologiya importining samaradorligi malaka va bilimlarning lokallashuvi darajasiga bog'liq. Agar import qilinayotgan uskunalarni faqat xorijlik mutaxassislar o'rnatsa, transfer faqat texnik jihat bilan cheklanadi. Agar mahalliy mutaxassislar to'liq qatnashsa – bilim, tajriba va innovatsiya transferi yuz beradi. Shu sababli, mahalliy kadrlarning xorijda o'qishi orqali texnologiya transferi samarasi 2-3 barobar yuqori bo'ladi, bu esa sanoat tarmoqlarida import xarajatlarini qisqartirish imkonini beradi.

Y.Shumpeterning "Innovatsiyalar nazariyasi"ga ko'ra, iqtisodiy rivojlanishning asosiy manbai – yangi bilim va texnologiyalarni joriy etishdir [18]. Mahalliy kadrlarni xorijda

o'qitish orqali: mahalliy korxonalar xizmatlar bozorida innovatsion salohiyatga ega bo'ladi; import o'rnini bosuvchi servis xizmatlari tizimi yaratiladi; yangi ishlab chiqarish zanjirlari va xizmat ko'rsatish tarmoqlari shakllanadi. Bu jarayon natijasida milliy iqtisodiyotda "learning by doing" (amaliyot orqali o'rganish) mexanizmi faollashadi.

Hozirda yirik sanoat loyihalarida xorijlik mutaxassislarni jalb etish uchun katta mablag' sarflanadi. Masalan, bir texnika uskunasi uchun xizmat ko'rsatish, sozlash yoki ta'mirlash qiymati uning umumiy narxining 10-15 foiziga teng. Agar mahalliy mutaxassislar bu ishni amalga oshirsa, har bir loyiha bo'yicha davlat iqtisodiyoti kamida 10-12 foiz sarfni tejaydi. Har bir o'qitilgan mutaxassis keyinchalik: mahalliy servis korxonalarida ishlaydi; yangi kadrlarni tayyorlaydi; sanoatda xizmat ko'rsatishning lokal tarmog'ini yaratadi. Bu orqali mamlakatda "texnologik mustaqillik" bosqichma-bosqich ta'minlanadi. Xorijda o'qitilgan mutaxassislar bilim va tajribasini mahalliy ishlab chiqarishga tatbiq etganda, mehnat unumdorligi o'rtacha 20-25 foizga oshadi, bu esa iqtisodiy o'sish sur'atlariga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi.

Iqtisodiy siyosat nuqtai nazaridan malaka oshirish xarajatlarini davlat hisobidan qoplash: jamoat investitsiyasi (public investment) sifatida qaraladi; uzoq muddatli daromad keltiruvchi "intellektual infratuzilmaga sarmoya" hisoblanadi; davlatning strategik vazifasi – milliy kadrlar tayyorlash tizimini qo'llab-quvvatlashdir. Bu yo'nalish endogen o'sish nazariyasi (Romer, 1990) bilan uyg'un bo'lib, bilim va innovatsiyani iqtisodiy o'sishning ichki manbai sifatida ko'radi. Xorijga qat'iy bog'liqlikdan chiqish – texnologik xavfsizlikning muhim elementidir. Mahalliy mutaxassislar yetarli bo'lsa, mamlakat sanoati tashqi xizmatlardan kamroq bog'liq bo'ladi, bu esa milliy iqtisodiy xavfsizlikni kuchaytiradi.

Xalqaro tajribani o'rganadigan bo'lsak, Koreya Respublikasida "Global Technical Training Program" orqali mahalliy injenerlar

xorijdagi zavodlarda o'qitiladi. Sanoatda mahalliy servis xizmatlari ulushi 70 foizgacha yetdi. Germaniyada "Dual Education System" – ishlab chiqarish va o'quv amaliyoti birlashgan tizim mavjud bo'lib, korxonalarda texnik xizmat ko'rsatishning 90 foiz mahalliy kadrlar tomonidan amalga oshiriladi. Xitoyda Davlat hisobidan "Technology Fellowship" dasturi amal qiladi va natijada import texnika xizmatlari xarajatlari 40 foizga kamaydi

Mahalliy mutaxassislarning xorijda malaka oshirishini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash – inson kapitali va texnologiya transferi nazariyalariga asoslangan strategik investitsiya hisoblanadi. Bu chora import xarajatlarini qisqartirib, sanoat tarmoqlarida xizmatlar bozorini mahalliy lashtirishni ta'minlaydi. Davlat budjeti ishtirokidagi o'quv dasturlari uzoq muddatda soliq tushumlari orqali o'z-o'zini qoplaydigan investitsiya shaklida namoyon bo'ladi. Texnologik mustaqillik va kadrlar salohiyatining oshishi mamlakatning iqtisodiy xavfsizligi va innovatsion barqarorligini ta'minlaydi.

Xulosa va takliflar.

O'zbekiston Respublikasida investitsiya muhitining jozibadorligini oshirish – iqtisodiy o'sish, yangi ish o'rinlari yaratish va ilg'or texnologiyalarni jalb etishning muhim shartidir. So'nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar, soliq va huquqiy tizimning liberallashtirishi, xalqaro sheriklikni kuchaytirish choralari mamlakatni mintaqadagi yetakchi investitsiya markazlaridan biriga aylantirish salohiyatiga ega. Shu bois, kelgusida ham davlat va xususiy sektor hamkorligi, qonun ustuvorligi va iqtisodiy erkinlikni ta'minlash orqali O'zbekistonda sarmoya muhitining jozibadorligi izchil ravishda oshib boradi.

Milliy investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish uchun quyidagi taklif va tavsiyalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir:

– yoshlar o'rtasida tadbirkorlikni keng

ommalashtirish va biznes bilan shug'ullanishlariga qo'shimcha imkoniyatlar yaratish maqsadida oilaviy tadbirkorlik dasturi doirasida ajratilayotgan kreditlarning kamida 40 foizini yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishga yo'naltirishning maqsadga muvofiqdir;

– mamlakatda investitsiya muhiti jozibadorligini ta'minlash va investitsiyalarning o'zlashtirish ko'rsatkichlarini yanada oshirishda maxsus iqtisodiy zonalarining ishtirokini faollashtirish va ular faoliyatini takomillashtirish maqsadida maxsus iqtisodiy zonalarining faoliyat ko'rsatish muddatiga oid cheklovlarni bekor qilish zarur;

– yangi maxsus iqtisodiy va sanoat zonalarini faqat infratuzilma mavjud bo'lgan yoki u bilan ta'minlash iqtisodiy asoslangan,

moliyaviy samaradorligi hisoblangan biznes reja va master reja asosida qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlarda tashkil etishning maqsadga muvofiq;

– o'z faoliyatini tegishincha yakka tartibdagi tadbirkor, mikrofirmalar yoki kichik korxona toifasigacha yiriklashtirgan o'zini o'zi band qilgan shaxslar va tadbirkorlik subyektlariga Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturi doirasida 50 million so'mgacha, Kichik biznesni uzluksiz qo'llab-quvvatlash kompleks dasturi doirasida – 150 million so'mgacha garovsiz kreditlar berish kerak;

– mahalliy mutaxassislarining xorijdagi yuqori texnologiyali uskuna va jihozlar ishlab chiqarish zavodlarida malaka oshirishini tashkil etish hamda bu bilan bog'liq xarajatlarni Davlat budjeti hisobidan qoplab berish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Global to'g'ridan-to'g'ri investitsiya ketma-ket ikkinchi yil pasaymoqda. World Investment Report 2025: International investment in the digital economy | UN Trade and Development (UNCTAD).
2. Шарп У., Александер Г., Бейли Дж. Инвестиции: пер. с англ. – М.: «ИНФРА-М», 2001. – С. 29.; Хиггинз Р.С. Финансовый менеджмент. Управление капиталом и инвестициями. – М.: «Вильямс», 2013. – С. 112.; Цви Боди, Алан Дж. Маркус, Алекс Кейн. Пер. с англ. Е.Мельник 7-го междунар. изд. – М.: «Олимп-Бизнес», 2013. – С. 84.; Крейнина М. Н. Финансовый менеджмент. – М.: «Дело и Сервис», 2009. – С. 128.
3. Литвинцева Г.И. Факторы и пути повышения инвестиционной привлекательности региона. Идеи и идеалы 2019. Том 11. №4, часть 2. – С. 244-245.
4. Vaxabov A.V., Xajibakiyev Sh.X., Muminov N.G. Xorijiy investitsiyalar. O'quv qo'llanma. – T.: «Moliya», 2010. – B. 159.; Mustafakulov Sh.I. Investitsion jozibadorlikning nazariy, metodologik va amaliy talkini. – T.: «Ma'naviyat», 2021. – B. 21.; Ergashev A.H. Hududlarning investitsion muhit jozibadorligini oshirishda marketing strategiyalaridan foydalanish istiqbollari. Iqt. fan. bo'y. fals. dokt. (PhD) diss. avtor. – T.: «TDIU», 2018. – B. 12.; Mamatov B.S. va boshq. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. Darslik. – T.: «Iqtisod-Moliya», 2014. – B. 152-153.
5. O'RQ-598-son 25.12.2019. Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida.
6. PF-158-son 11.09.2023. «O'zbekiston – 2030» strategiyasi to'g'risida.
7. PQ-5041-son 27.03.2021. Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida amalga oshiriladigan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida.
8. Managerial_Economics_Macro_Didgest.pdf.
9. O'RQ-604-son 17.02.2020. Maxsus iqtisodiy zonalar to'g'risida. 20-modda.
10. ERKIN IQTISODIY ZONALAR XITOIY XALQ RESPUBLIKASI TAJRIBASIDA.
11. Jebel Ali Free Zone (Jafza) | FZE, FZCO business setup in Dubai.

12. Пол А. Самуэльсон, Вильям Д. Нордхаус. Экономика: Пер. с англ. — М.: «БИНОМ», «Лаборатория Базовых Знаний», 1997. — 800 с. Samuelson-Nordhaus.pdf.
13. Управленческая экономика/Теория размещения производства — Викиучебник; Современные теории размещения; Закономерности размещения производительных сил и их особенности.
14. (PDF) *The Theory of the Growth of the Firm* (Edith Penrose, 1959).
15. [PDF] *Credit Rationing in Markets with Imperfect Information* | Semantic Scholar.
16. Schulz T. Capital Formation bi Edukathion // *Journal of Politikal Economi.* — 1960, p.25.; Becker G.S. Investment in Human Capital: A. Theoretical Analysis // *Journal of Politikal Economy. Supplement. Oct., 1962. haikin.pdf.* Понятие, виды и теории человеческого капитала.
17. Vernon, R. International investment and international trade in the product cycle / R. Vernon [Electronic resource] // <http://web.ebscohost.com/ehost/pdfviewer/pdfviewer?vid=7&hid=8&sid=28e3e8c2-9323-4646-8a03-d6b285811295%40sessionmgr13> — Date of access: 20.08.2009.; Dunning J. N. The Eclectic (OLI) Paradigm of International Production: Past, Present and Future // *International Journal of the Economics of Business.* 2001. Vol. 8. № 2. P. 174.
18. Введение в инноватику. Часть 1, Л. Абзалилова, 2.2. Теория инновационного развития Й. Шумпетера - читать фрагмент онлайн бесплатно.